




Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 9/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№9/2025

YUK 5/9(08) КБК 72я5 К 99	Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov Nashr uchun mas‘ul:A.A.Ergashev
MUASSIS: Qo‘qon davlat universiteti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart. "Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Sayt: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR I.I.Gibadullina, kandidat biologicheskikh nauk, (PF) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) A.J.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) I.A.Kisel’eva, doktor filologicheskikh nauk, professor (PF) B.B.Borisova, doktor filologicheskikh nauk, professor (PF) K.A.Potashova, kandidat filologicheskikh nauk, dotsent (PF) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (PF) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) ITIMOIIY FANLAR L.G.Nasyrova, kandidat istoricheskikh nauk, dotsent (PF) Z.B.Galliyeva, kandidat istoricheskikh nauk, dotsent (PF) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) PEDAGOGIKA FANLAR P.F.Axtarieva, kandidat pedagogicheskikh nauk, dotsent (PF) H.H.Maslennikova, kandidat pedagogicheskikh nauk, dotsent (PF) L.A.Maksimova, kandidat pedagogicheskikh nauk, dotsent (PF) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)



SAIDA ZUNNUNOVANING ANTITEZADAN FOYDALANISH MAHORATI

Xo‘jamberdiyeva Go‘zalxon Zafarjon qizi

O‘zbek tili mutaxassisligi

2-kurs tayanch doktoranti

guzalxonsoliyeva5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saida Zunnunova she‘rlarida antitezaning qo‘llanilishi va ularning xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Antiteza zid ma‘noli so‘zlarning boshqacha nomlanishi bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Maqolada berilgan misollar shoiraning “Saylanma” sidan olingan.

Аннотация. В данной статье рассматривается употребление антитезы в стихах Саиды Зуннуновой и их особенности. Аннотация: В данной статье рассматривается использование антитезы и её особенности в стихотворениях Саиды Зуннуновой. Антитеза – это синоним слов с противоположным значением, служащих для выражения противопоставленных друг другу понятий. Приведённые в статье примеры взяты из стихотворения поэтессы «Выборы».

Annotation. This article examines the use of antithesis and its features in the poems of Saida Zunnunova. Antithesis is another name for words with opposite meanings and serves to express concepts that are opposed to each other. The examples given in the article are taken from the poetess's poem "Election".

Kalit so‘zlar: Antiteza, kontrast, ekspressivlik, qarama – qarshilik, estetik ahamiyat, umumiylik, sof antonimlar, antitetik tushunchalar.

Ключевые слова : Антитеза, контраст, выразительность, противопоставление, эстетическая значимость, общность, чистые антонимы, антитетические понятия.

Keywords: Antithesis, contrast, expressiveness, opposition, aesthetic significance, generality, pure antonyms, antithetical concepts.

KIRISH.

Tilimizda zid ma‘noli so‘zlarning mavjudligi, badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashga va personajlar xarakter-xususiyatini ochib berishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblanadi. Zid ma‘noli so‘zlar adabiyotning deyarli barcha turlarida keng va faol qo‘llanadi. [6:33] “Antonimlarning o‘zaro zid (qarama-qarshi) ma’noga ega so‘zlar ekani deyarli barcha tomonidan e’tirof etiladi. Lekin ma’nodagi

ana shu zidlik (qarama - qarshilik) ni tushunish, belgilash va talqin qilishda bir xillik yo‘q. Shuning uchun ham, garchi zid ma’noli so‘zlarning antonim bo‘lishi e’tirof etilsa - da, ikki so‘zning antonimligini belgilashda har xilliklar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ma’nodagi zidlik haqidagi gap juda umumiy bo‘lib, bu zidlik nimada ekani konkretlashtirilmaguncha, ikki so‘zning antonimligini to‘g‘ri belgilash hamma vaqt ham mumkin bo‘lavermaydi ”. Antiteza atamasi zid ma’noli so‘zlarning boshqacha nomlanishi bo‘lib, asarda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Antiteza - (antithesis – qarama - qarshi qo‘yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi. [6:33]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

G. Muhammadjonova tasnifiga ko‘ra, antonimlar tasvirning aniq ravshan chiqishida, tasvir etilayotgan holat, narsa, voqelikning farqli tomonlarini to‘la va obrazli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. She’riyatda bunday zid ma’noli so‘zlardan foydalanish kuchli hissiyotni ifodalashda juda qo‘l keladi. Antonim so‘zlarni qo‘llashda uning ma’no ifodasiga, semalar o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratish lozim. Chunki so‘zlarni qo‘llashda uning ma’no ifodasiga, semalar o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratish lozim. Chunki har qanday antonimdek ko‘ringan so‘zlar singari zid va qarama-qarshi ma’no munosabatini ifodalay olmasligini ko‘rish mumkin.

M. Yoqubjonova esa antonimlarning xarakterli ko‘rinishlaridan biri bu kontekstual antonimlar ekanligini, ular so‘zlanayotgan nutq holatidan kelib chiqqan holda, matnda qo‘llanilish jarayonida ya’ni kontekstda sodir bo‘lishini, bundan tashqari zidlash munosabatini ifodalashning yana bir turi oksumoron ham antonimlar vositasida namoyon bo‘lib, katta badiiy estetik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

She’riy asrlarda sof antonimlardan ko‘ra kontekstual antonimlar ko‘plab o‘rinlarni egallaydi. Shuni e’tiborga olgan holda asosiy diqqatimizni kontekstual antonimlarga qaratdik.

Saida Zunnunova o‘z she’rlarida antitezadan unumli foydalangan.

Birin **suyib**, birin **irg‘itdi**,

Tabiatning ishidan men lol.

Mazkur misolimizda suymoq -irg‘itmoq leksemalari o‘zaro zid ma’noli hisoblanadi. Lekin bu zidlik faqatgina kontekst talabi bilandir. Alohida olinganda ular sof antonimlar hisoblanmaydi. Shoira tabiatning birini suyib, boshqasin irg‘itish ishlaridan mutlaqo lol ekanligini aytib, hayratini yashira olmaydi.

Tuproq **kulgisidan yasharar** olam,

Tuproq **yig‘isidan quriydi** hayot.

Yuqoridagi misolda esa kulgu-yig‘i, yasharmoq-qurimoq kabi antonimlar keltirilgan. Kulgu-yig‘i sof antonimlar hisoblansa, yasharmoq - qurimoq leksemalari esa kontekstual antonimlardir. Tuproqning kulgusidan olam yanada yangilanish, yasharishi haqida aksincha

bo‘lsa esa, butun hayot tugashi, qurishi yo‘q bo‘lishi haqidagi mazmunni o‘z ichiga singdirib yuborgan.

Bitta chalib bergin, toki yana ham

Yaxshiroq ajratay **qorani, oqni**.

Bu misralarda keltirilgan qora-oq leksemalari sof antonimlar hisoblanadi. Chunki ular nafaqat kontekst (matn) ichida, balki alohida olinganda ham zidlik hosil qiladi. Shoira mazkur she‘rida dutorga murojaat qilib, ”Cho‘li iroq” kuyini yana bir chalib berishini so‘rab, shu kuyni eshitish mobaynida yana ham yaxshi – yomonni ko‘proq ajrata olishini aytib o‘tgan.

Bilmasdim, she‘r **baxti, zahmati** shunda

Kuy bilan ko‘nglimga tutashganini,

Bilmasdim.

Baxt - zahmat leksemalari kontekstual antonimlar hisoblanadi. Shoira har bir ishning baxti bo‘lishi bilan birga qiyinchiliklari bo‘lishi mumkinligini, o‘n besh kuni yorug‘, o‘n beshi qorong‘u bo‘lishi haqidagi hikmat mazmunini ushbu misralarga singdirib yuborgan.

Dardin eshshitingmi tirikligida?

Biron **shodlik** kuni gul tutganmiding?

Ushbu misoldagi dard-shodlik leksemalari kontekstual antonimlardir. Alohida olinganda ular o‘zaro zidlik hosil qilmaydi. Shoira bu misralarida inson qadri haqida so‘z yuritadi. Insonlarni ularning tirikligida qadriga yetish kerakligini, ota-ona, opa-singil, yor- u birodar, qavm-u qarindoshlardan tez-tez xabar olish chunki ular ham biz ham g‘animat ekanligini aytib o‘tadi.

Quyoshga qanchalar yaqinsiz, ammo

Muzdek ko‘ksingizdan arimaydi qor.

Quyidagi misolimizda quyosh va muz leksemalari kontekstual antonimlardir. Alohida olinganda bu leksemalar o‘zaro antonimlik hosil qilmaydi, lekin matn ichida o‘zaro antonimlik munosabatida bo‘la oladi. Quyoshning issiqlik darajasi hamda muzning sovuqlik darajasi o‘zaro zidlik munosabatida keltirilgan.

Kunduzi- u qular, **tun** kechalar- men,

Ikkov qo‘shilishib she‘rga singamiz.

Keltirilgan misolda kunduz –tun leksemlari sof antonimlardir. Chunki ular alohida olinganda ham, matn ichida ham o‘zaro antonimlik hosil qila oladi. Bunda kunduzning yorug‘ligi, tunning esa qorong‘u ekanligini antonimlik munosabatiga misol bo‘la oladi.

Shuncha **keng** olam Saida ko‘zlariga **tor** bo‘lur,

Vasliga har dam ilinju muddaosi bo‘lmasa.

Keng - tor leksemalari sof antonimlardir. Yorning vasliga yetishish uchun qancha harakat qilmasin, barcha harakatlari foydasiz ekanligini aytadi. Buning natijasida keng olam shoira ko‘zlariga tor bo‘lib ko‘rinadi, shunday olam go‘yo sig‘may ketadi.

Dilga **yaqin**, ammo ko‘zdan **uzoq** yor,

Bir yelkan misoli olis dengizda.

Yaqin-uzoq leksemalari ham sof antonimlardir. Yor doimo oshiqning dilida, qalbida yashaydi, go‘yo doimo yonma-yondek ko‘rinadi. Ammo haqiqatda esa qalban qanchalik yaqin bo‘lsa-da, ko‘zidan shunchalik uzoq ekanligini keltiriladi. Go‘yoki, shoir yorni ulkan dengizdagi olis yelkanga o‘xshatadi.

Men esa yillarki, qirg‘oqda tikka,
Gohi **umidsizman**, gohi **umidvor**.

Shoira ushbu misralardagi fikrlarini davom ettirib, necha yillardan beri yolg‘iz va olis bo‘lgan yelkanni kutayotganligini va kutish mobaynida gohi umidlari so‘nib, gohida esa yana bir umid uchqunlari paydo bo‘lishini aytib o‘tadi. Umidvor va umidsiz leksemalarida –vor va –siz affikslari o‘zaro zidlik (antonimlik) hosil qilgan.

XULOSA.

Saida Zunnunova o‘z she‘rlarida antitezadan, shu bilan birga, o‘zbek tili sinonimlari imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olgan. Antitezalar she‘rning ta’sirchanligi, ohangdorligi, hamda badiiy-estetik jihatdan salmoqdorligining oshishini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta’minlovchi leksik vositalar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2009.
2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Andijon, 2003.
3. Saida Zunnunova. She‘rlar. - Toshkent, 1982.
4. Tursunova O. O‘zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2019.
5. Toshxo‘jayeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Farg‘ona, 2017.
6. Yoqubjonova M. Badiiy matnlarda antitezaning qo‘llanilishi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. - Toshkent, 2022.
7. Yo‘ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - Toshkent, 2007.
8. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she‘riyati lingvopoetikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2007.